

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlari natijalari to'g'risida hisobot

Vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi tomonidan 2025-yil uchun tasdiqlangan ish rejasiga muvofiq, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti hamda Urganch davlat pedagogika institutida korrupsiya faktlari to'g'risida xabar berish uchun mo'ljallangan maxsus axborot-aloqa kanallari faoliyati o'rganildi. O'rganish jarayonida quyidagi holatlar aniqlandi:

- Oliy ta'lim muassasalarining rasmiy veb-saytlarida korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot-aloqa kanallari to'g'risida ma'lumotlar mavjud emas.

- Veb-saytlarda faqat korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqaruv bo'limlari xodimlarining shaxsiy mobil aloqa raqamlari va elektron pochta manzillari keltirilgan. Biroq ushbu ma'lumotlardan foydalanish uchun foydalanuvchilarga qulay shart-sharoitlar yaratilmagan.

- Sinov tariqasida veb-saytlarda ko'rsatilgan elektron pochta manzillariga korrupsiyaga oid xabarlar yuborildi. Xabarlar jo'natilganidan so'ng bir hafta o'tsa-da, tegishli mas'ul shaxslar tomonidan qayta aloqa o'rnatilmadi.

- Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti veb-saytida "Korrupsiyaga qarshi kurash" sarlavhasi (rubrikasi) va korrupsiyaga qarshi kurashish "komplayens-nazorat" tizimini boshqaruv bo'limiga oid ma'lumotlar foydalanuvchilar uchun qulay tarzda taqdim etilmagan.

- Urganch davlat pedagogika instituti veb-saytida esa "Korrupsiyaga qarshi kurash" bo'limi umuman yaratilmagan.

O'rganish natijalariga ko'ra, ushbu tashkilot va muassasalarning veb-saytlaridagi tegishli sahifalar va ma'lumotlar tahlil qilinib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq vazifalar berildi. Ushbu chora-tadbirlar korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini oshirish va axborot kanallarining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan.